

**Mavzu: AHOLINI KUTUBXONALARGA JALB ETISH VA KITOBXONLIK
TARG'IBOTI**

Sultanova Sadoqat Botir qizi

Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti

*Kasbiy ta'lim fakulteti, Kutubxona-axborot faoliyati (tarmoq turlari bo'yicha)
yo'nalishi 3-kurs talabasi.*

Bugungi kunda aholini kutubxonalarga jalb etish va kitobxonlik targ'iboti juda muhimdir, chunki kutubxonalarda kitob o'qish, ilmiy maqolalar yozish va o'z fikrini ifoda qilish imkoniyatiga ega bo'lish mumkin. Mutolaa madaniyati va kitobxonlik bugungi kundagi dolzarb muammolardan biri. Ayniqsa internet rivojlanayotgan bir davrda yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Kutubxonalarning faoliyatini reklama va tanitish kampaniyalari orqali kengroq auditoriyaga taqdim etish muhimdir. Sotsial media, radiyo, televizor va boshqa kommunikatsiya vositalari orqali kutubxonalarning faoliyatini reklamalash va tanitish kampaniyalari o'tkazish foydalidir.

Kalit so'zlar: kitobxonlik, kutubxonalarda targ'ibot, yosh kitobxon, mutolaa madaniyati, eng yaxshi kitobxon, yoshlar festivali, besh tashabbus, ta'lim.

Kirish bo'limi. Mutolaa madaniyati tushunchasi orqali har bir inson, adabiyotlari, san'ati va boshqa madaniy ko'nikmalar orqali insonlar o'z ma'rifatlarini oshiradi va dunyo bilim va san'ati bilan tanishadi. O'qish bu dunyo bo'ylab sayohat qilishning ishonchli usuli yani mutolaa orqali biz butun dunyoni kechirib o'tirish va maqsadlarimizga erishishimiz mumkin. O'qish madaniyati insonning o'zining o'zini rivojlantirishida katta ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun o'qish yoshlikdan boshlanadi. Boshlang'ich maktabda biz ertaklardan boshlaymiz. O'rta maktab bizning fikrimizni turli janrdagi kitoblar ochadi va keying ta'limda asosan tadqiqot ishlari va ilmiy topilmalarni o'qiyamiz. Demak, bu bizning ta'limimizning har bir darajasiga to'qilgan ip yani ketma ketlik.

Biz kitob va kitob mutolaasi haqida gapirar ekanmiz, eng asosiysi mazkur sohaning asosiy yo'nalishi bo'lgan kutubxona faoliyatining asosiy vazifalariga to'xtalib o'tamiz. Kutubxona faoliyati axborot xizmatining barcha turlarini qamrab oladi. Kutubxona - axborot xizmati ijtimoiylashtiruvchi institut bo'lgan kutubxonaning tarkibiy qismi sifatida ijtimoiy subyektlarning ehtiyojlarini qondirish va rivojlantirish maqsadida jahon axborot resurslari asosida kutubxona - bibliografik va axborot faoliyati vositalari yordamida turli usullar va shakllarda kutubxona - bibliografik va axborot mahsulotlarini hamda xizmatlarini taqdim etishdan iboratdir

Kutubxonalarning boshqa institutlar, maktablar, universitetlar va jamiyatlar bilan hamkorlik tadbirlari o'tkazilishi aholini kutubxonalarga jalb etishga yordam beradi.

Ko'plab tadbirlar, darsliklar, ko'rgazmalar va boshqa faoliyatlar orqali aholi kutubxonalardagi imkoniyatlardan foydalanishga chaqiriladi. Aholini kutubxonalarga jalb etish uchun aholining bilimni oshirish uchun ko'plab tadbirlar o'tkazilishi muhimdir. Masalan, kitobxonalar to'g'risida maqollar yozish, kutubxonalar to'g'risida ma'lumot beruvchi maqolalar chiqarish va boshqa ko'plab faoliyatlar tashkil etish orqali aholi qiziqishini oshirish mumkin.

YUNESKO Bosh direktori Odre Azule ta'lim to'g'risida quyidagicha fikr bildirgan "Ta'lim va kitobxonlik - bu jamoat manfaati. Bu nozik, mo'rt, lekin bu biz qila oladigan eng yaxshi sarmoyadir" Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni rivojlantirsak vatanimiz ravnaqi uchun katta qadam qo'ygan bo'lamiz. Yoshlarni bo'sh vaqtlarida badiiy kitob o'qishga qiziqtirish yoki biror kasbga yo'naltirish kerak. Shu asnoda Respublikamizda «Yoshlarning bo'sh vaqti — yetakchining ish vaqti» tamoyili asosida yoshlar bilan «mahallabay» ishlash tizimi joriy etildi. Bunda:

- yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida besh tashabbus olimpiadalarining «mahalla-sektor-tuman-viloyat-respublika» bosqichlarini tashkil etish;
- «Yangi O'zbekiston yoshlari birlashaylik» shiori ostida yoshlar festivallarini o'tkazish;
- «Yilning eng namunali mahalla yetakchisi», «Axborot texnologiyalari bilimdoni», «Yil talabasi», «Talabalar teatr studiyalari» va boshqa tanlovlarni o'tkazish;
- yoshlar orasida xorijiy tillarni ommalashtirish maqsadida «Ibrat media markazi» faoliyatini yo'lga qo'yish;
- 7 dan 14 yoshgacha bo'lgan bolalarning madaniyat va san'at sohasidagi iqtidorini qo'llab-quvvatlash maqsadida ular o'rtasida «Kamalak yulduzlari» respublika ko'rik-tanlovini o'tkazish belgilangan.

Metodlar bo'limi. Albatta kitobxonlikni targ'ib qilishda va mutolaa madaniyatini rivojlantirishda bir qancha to'siqlarga uchrashimiz mumkin. Misol sifatida quyidagicha:

- vaqt yetishmasligi yani ko'pincha biz turli xil mashg'ulotlar bilan shug'ullanganimizda to'liq ushbu jarayonga kirib keta olishimiz uchun vaqtning kamligi;
- kitoblarning cheklanganligi – biz har doim ham xohlagan kitoblarimizni o'qiy olmaymiz. Bning asosiy sababi kitoblarning narxlari va kutubxonalarda biz izlayotgan kitoblarning bor yoki yo'qligi;
- til to'siqlari - ba'zida biz o'qishni maqsad qilgan kitob yoki material biz biladigan tilda mavjud emasligi

Lekin bugungi kunda ushbu muammolarni hal qilish oson, yani zamonaviy texnologiyalar orqali internetga kirishimiz va turli xil materiallarni topishimiz mumkin. Mutolaa orqali har bir insonning fikrlashi va dunyo qarashi kengayadi, so'z boyligi ortadi va bilimlari shakllanadi. Kitobxonlik madaniyati haqida so'z borar ekan, avvalo yoshlarga kitob o'qish qoidalari va turlari haqida tushunchalar berish lozim bo'ladi. Shu sababli davlatimiz keyingi yillarda yoshlar o'rtasida kitobxonlik madaniyatini targ'ib qilish borasida bir qancha ishlar olib bormoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagi PF-5953-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi¹:

2020 — 2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturi;

2020 — 2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturini 2020-2021-yillarda amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi";

Ushbu dastur quyidagilarni nazarda tutuvchi uch bosqichda amalga oshiriladi:

birinchi bosqich — 2020-2021-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish bo'yicha tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish;

ikkinchi bosqich — 2022-2023-yillarda kitobxonlikka oid infratuzilmani mustahkamlash;

uchinchi bosqich — 2024-2025-yillarda yoshlarning kitobxonlik madaniyatini jadal rivojlantirish, ularning intellektual salohiyati o'sishi hisobiga inson kapitali sifatini yaxshilash.

Shunindek, «Eng yaxshi kitobxon hudud», «Eng yaxshi kitobxon mahalla», «Eng yaxshi kitobxon ta'lim muassasasi» kabi bir qancha loyihalar ishlab chiqilmoqda. Bundan tashqari, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish uchun ma'naviy-ma'rifiy, bolalarga mo'ljallangan va milliy adabiyotlarni chop etish, respublikaning barcha yoshdagi fuqarolarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va kitobxonlikka doir bir qancha tanlov va loyihalar ishlab chiqish yoshlar o'rtasidagi madaniyatni shakllantirishda, ularning qiziqishlariga mos keladigan ma'ruzalar, darsliklar, ko'rsatmalar va tadbirlar tashkil etish juda muhimdir. Bu usul orqali yoshlar o'zlarini qiziq va ma'naviy ravishda rivojlantirishlari mumkin. Yoshlarning madaniy bilimlarni o'rganishi uchun imkoniyatlarni yaratish ham muhim hisoblanadi. Masalan, teatrlar,

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagi PF-5953-son [Farmoni](https://lex.uz/docs/-5441590?type=doc) <https://lex.uz/docs/-5441590?type=doc>

kinoteatrlar, muzeylar, maqolalar va boshqa ma'lumot manbalari orqali ularga madaniy tarix, san'at, adabiyot va boshqa sohalardagi bilimlarni o'rganish imkoniyati berilishi kerak.

Natijalar bo'limi. Xalqimiz turmush tajribasidan ma'lumki, ajdodlarimiz farzand tarbiyasida kitob mutolaasiga alohida e'tibor qaratishgan. Ajdodlarimiz xalq ertaklari-yu dostonlarini tinglab tafakkurini boyitganlar. Ushbu o'qigan bilimlari birinchi navbatda oila va jamoat davrasida muhokama qilingan. Buyuk alloma-yu ijodkorlarimiz ham oilasidagi qo'llab quvvatlashlar orqali kitobga mehr qo'yishi bilan shakllangan. Shuning uchun ham bugungi kunda yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish va mutolaa madaniyatini shakllantirishda ota-onalarning ham o'rni va turtkisi muhim hisoblanadi. O'quvchi yoshlar o'rtasida kitobxonlik va savodxonlikni rivojlantirishda o'qituvchilar, maktab kutubxonalari va ota-onalar hamkorligi zarur. Maktab kutubxonsi, o'qituvchi, ota-onalarning hamkorligi albatta, o'z samarasini beradi – bu bolalarni maktab kutubxonachisi, oila bilan aloqasini mustahkamlaydi, bolalarning kitobxonlik faolligi va madaniyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Maktab, ota-onalar va kutubxonaning hamkorligi nafaqat kitob o'qishning foydaliligiga ishontiradi, balki ularni ommaviy kutubxonaga bo'sh vaqtni qiziqarli va foydali o'tkazish tashkilotchisi, norasmiy muloqot joyi, o'quvchilar bilan muloqot qilish markazi sifatida qarashga majbur qiladi bundan tashqari:

- kutubxonalarda kitobxonlar soni ortadi;
- motivatsiya darajasi va o'qish madaniyati sezilarli darajada oshadi;
- sinfdan tashqari mashg'ulotlar tufayli maktab o'quvchilari nutq mahoratini oshira oldilar, tilini boyitdilar, jamoada muloqot qilishni o'rgandilar, bolalar va ota-onalar o'rtasidagi yaxshi munosabatlar yuzaga keladi va mustahkamlandi.

Bizning fikrimizcha yoshlar o'rtasida mutolaa madaniyatini shakllantirish uchun birinchi navbatda farzandlar tarbiyalanayotgan oilaning tarbiyaviy salohiyatini o'rganish, maktablarda va o'quv muassasalarida ota-onalar yig'ilishi o'tkazish va ota-onalar o'rtasida so'rov o'tkazib kitobxonlik oilada qaysi o'rinni egallashini, uy kutubxonalari bor-yo'qligini, oilaviy kitobxonlik an'analari bor-yo'qligini va ota-onalarning bolalarning kitobxonlikka bo'lgan qiziqishini aniqlash va targ'ibot tashviqot ishlarini olib borish zarur. Zamonaviy jamiyatda, afsuski, bolalarni kitob o'qishi sohasidagi muammolar mavjud. Buni bugungi kunda fanning turli sohalari mutaxassislari: kutubxonachilar, o'qituvchilar, psixologlar, oliy maktab o'qituvchilari va boshqalar mana shu soha bo'yicha ish olib boradilar.

Rus olim S.A.Denisova ta'kidlaganidek, "Birinchi navbatda bola kitob o'qishi uchun oiladagi tarbiya va maktab muxiti asos bo'ladi. Agar o'qish kattalar oila a'zolarining hayotining muhim qismi bo'lsa, bola uni o'zlashtiradi va o'zini shu muhitga o'rgatadi. Bolalikda olingan taassurotlar umr bo'yi qoladi va bolalar tomonidan o'z

oilasida amalga oshiriladi” shuning uchun oila va maktab o’rtasida hamkorlik juda muhim hisoblanadi.

Munozara bo’limi. Sotsiologik so’rovlar shuni ko’rsatadiki, so’nggi yigirma yil ichida o’qish holati, qiziqish nafaqat maktab o’quvchilarida, balki fuqarolarning toifalari orasida ham sezilarli darajada pasaygan. Bugungi kunda kitoblar o’rnini ijtimoiy tarmoqlardagi qisqa metrajli videolavhalar, giperhavolalar va kliplar egallamoqda. Bu juda dolzarb muammo chunki yoshlar bunday havolalar orqali ma’lumot olib, asta-sekin o’ylash, fikr bildirish va tasavvur tushunchalari kamayishi mumkin. Kitob esa insonda olingan bilimlarni tasavvur qilishni o’rgatadi.

Vorontsovning kitobxonlik to’grisida quyidagi fikrlarni ilgari surgan:

1) Muammolar toifalarida fikr yuritishga, butunlikni anglashga va qarama-qarshi bo’lganlarni aniqlashga qodir: Kitob o’qiyotgan kishilar muammolar va savollar bilan muloqot qilishda yaxshi bo’lib, maslahat berish va yechim topishda ko’rsatuvlar berishadi.

2) Katta xotira va faol ijodiy tasavvur: Kitob o’qiyotgan kishilar o’qigan narsalarni yodga olishda yaxshi bo’lib, yangi fikrlar va tasavvurlar yaratishda faol bo’ladi.

3) Nutqni yaxshiroq bilishadi: Ular nutqni ifodalashda yaxshi bo’lib, fikrini qattiqroq va boyroq ifodalaydi.

4) Aniqroq shakllantirilgan va erkinroq yozilgan: Kitob o’qiyotgan kishilar o’z fikrlarini aniq va erkin shaklda yozib, ifodalaydi.

5) Aloqa qilish osonroq va muloqotda yoqimli: Ular boshqa odamlar bilan osonlik bilan aloqa qurishadi va muloqotda yoqimli bo’ladi.

6) Mustaqillik va ichki ehtiyojga ega: Kitob o’qiyotgan kishilar mustaqil fikrlarga ega bo’lib, tanqid qilish va xulq-atvorda mustaqil bo’ladi.

Xulosa. Xulosa qilib shuni ta’kidlashimiz joizki, yuqoridagi usullar bilan aholini kutubxonalarga jalb etish va kitobxonlik targ’ibotini oshirish mumkin. Bu esa kutubxonaning faoliyatini rivojlantiradi va o’quvchilar, o’qituvchilar va umumiy jamoat uchun foydali bo’ladi. Axir bejizga agar inson ilm nuri bilan o’z yo’lini yoritmasa, zulmat va nodonlik ko’chasida qoladi. Kishi qalbining nuri ilm va ma’rifat bilan baquvvat bo’ladi. Insoniyatning qadri ilm bilan hosil bo’ladi. Ilmdan hali hech kim zarar ko’rgan emas. Ilmni egallab olish esa bir san’atdir deyilmagan. Har bir davlatning kelajagi va rivojlanishi kitob o’qiyotgan yoshlarga bog’liqdir. Nainki yoshlar balki butun xalq birlashib mutolaa madaniyatini rivojlantirsak yurtimiz ravnaqini yana bir pog’onaga ko’targan bo’lamiz. Chunki mutolaa madaniyati insonlarni milliy, madaniy va ma’naviy qadriyatlarini o’rganish va rivojlantirishga yordam beradi. Bu madaniyat, insonlarga milliy tarix, adabiyot, san’at va madaniy merosni o’rganish imkoniyatini beradi. Chunki har bir insonning fikrlashi va dunyo qarashining kengayishi kitobxonlik va mutolaa madaniyati bilan chambarchas bog’liqdir. Bundan tashqari mutolaa insonlarga yurt va jamiyat haqida ko’proq bilim

olishga va ularning o'zaro munosabatlarni kuchaytirishga imkon beradi. Bu madaniyat, insonlarga xalqaro munosabatlarda adolat, insof, hurmat va mehribonlikni rivojlantirishga yordam beradi. Mutolaa insonning shaxsiy rivojlanishiga va ma'naviy zamonaviylikka erishishi uchun imkoniyatlar eshigi hisoblanadi. Shunday ekan biz yuksak cho'qqilarni zabt etishni kichik yo'llardan boshlashimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagi PF-5953-son Farmoni <https://lex.uz/docs/-5441590?type=doc>
2. <https://lex.uz/docs/-5160827>
3. <file:///C:/Users/Sadoqat/Downloads/yoshlar-o-rtasida-kitobxonlik-va-mutolaa-madanyatini-yuksaltirish-va-uning-o-ziga-xos-xususiyatlari.pdf>
4. <https://johnnyholland.org/2023/08/development-of-culture-of-reading-among-students/#r>
5. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/06/10/youth/> gazeta.uz